



“STATIK IP-MANZIL” QO‘SHIMCHA XIZMATINI TAQDIM ETISH TARTIBI

6.1. Zarurat tug‘ilganda, Abonent “Statik IP-manzil” - doimiy (barcha Abonent sessiyalari uchun o‘zgarishsiz) mijozning IP-manzili bilan ulanishni taqdim etuvchi Qo‘shimcha xizmatdan foydalanishi mumkin. Ajratilgan IP-manzil Operator tomonidan taqdim etiladi va “Internet va Uz-IX, TAS-IX tarmog‘iga kirish” Asosiy xizmati bilan birga foydalanilishi mumkin.

6.2. “Statik IP-manzil” Qo‘shimcha xizmatining narxi amaldagi Narxnomada ko‘rsatiladi.

6.3. Xizmatning hisob-kitob davri – 1 oy.

6.4. Bir oy davomida Abonent Xizmatga ulanganda (oyning 1-sanasidan emas) Abonent to‘lovining miqdori Abonent ulangan kundan boshlab, oyning oxirgi sanasigacha proporsional ravishda hisoblanadi, bunda, faollashtirish vaqtidan qat’i nazar, Abonent to‘lovi birinchi kun uchun to‘liq hisoblanadi.

6.5. Agar Abonent yangi oyning o‘rtasida avval to‘lanmagan hisob bo‘yicha to‘lovni amalga oshirsa, moliyaviy blokirovka holatida bo‘lgan Abonent faol maqomga o‘tkaziladi, xizmatlarga kirish imkoniyati qayta tiklanadi va bunda, joriy oy uchun Abonent to‘lovi hisoblanishi proporsional ravishda amalga oshiriladi. Bunday hollarda Abonent to‘lovining miqdori hisob bo‘yicha to‘lovlar to‘liq amalga oshirilgan kundan boshlab, joriy oyning oxirigacha bo‘lgan kunlar soniga mutanosib ravishda belgilanadi. Hisob bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilgan kun vaqtidan qat’i nazar, birinchi kun uchun Abonent to‘lovi to‘liq miqdorda hisoblanadi.

6.6. Xizmatni faollashtirish Abonentning UZTELECOM Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisiga yozma murojaati asosida, “Internet va Uz-IX, TAS-IX tarmog‘iga kirish” Asosiy Bazaviy xizmat faollashtirilganda amalga oshiriladi.

6.7. “Internet va Uz-IX, TAS-IX tarmog‘iga kirish” Asosiy xizmati blokirovka qilinganda, “Statik IP-manzil” Qo‘shimcha xizmati ham Asosiy xizmat faollashtirilgunga qadar, blokirovka qilinadi.

6.8. “Statik IP-manzil” xizmatini faollashtirgan Abonent ushbu xizmatni muddatidan oldin deaktivatsiya qilishni xohlasa, quyidagi qoidalar amal qiladi:

- Abonent xizmatni deaktivatsiya qilish sanasini ko‘rsatgan holda, Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisida xizmatni deaktivatsiya qilish uchun yozma arizani rasmiylashtirishi lozim;
- to‘liq bo‘lmagan oy davomida taqdim etilgan “Statik IP-manzil” xizmati summasi 1 oy davomida taqdim etilgan xizmat sifatida hisob-kitob qilinadi;
- “Statik IP-manzil” xizmati uchun avval hisobdan chiqarilgan summa bekor qilinib, qaytarib berilmaydi va qayta hisob-kitob qilinmaydi.

6.9. “Statik IP-manzil” xizmati Asosiy xizmatlardan alohida taqdim etilmaydi.

6.10. Abonent Asosiy xizmatlar uchun Abonent to'lovini belgilangan davrda to'lamagan holda, Operator "Statik IP-manzil" xizmatini bir kalendar oy muddatga blokirovka qiladi. Keyingi oyda Operator ushbu xizmat bo'yicha Abonent bilan kelishuvni bir tomonlama bekor qiladi. Ajratilgan IP-manzil boshqa Abonentga berilishi mumkin.

6.11. Operator tomonidan Abonent uchun ajratilgan ulanishning texnik ma'lumotlari o'zgarganda, shuningdek, "Internet va Uz-IX, TAS-IX tarmog'iga kirish" Asosiy xizmati uchun shartnomani saqlagan holda, Abonent rekvizitlari qayta rasmiylashtirilganda, ilgari ajratiladigan statik IP-manzil Abonent uchun saqlanib qolishi mumkin.

6.12. Ushbu xizmat bo'yicha savollar va qarorlar Abonent tomonidan Operatorning Sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga o'z vaqtida yozma ravishda murojaat qilinganda, hal etilishi mumkin.